



QAYNONA KELIN MUNOSABATLARI

Nasimova Gulmira

Norboboyeva Zahro

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

kechki ta'lim 24/1-guruh talabasi

zahronorboboyeva@gmail.com

gulmiranasimova682@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15591746>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEY WORDS

Qaynana ham, kelin ham ayol sifatida qanchalik yaxshi bo'lmasin bir- biri bilan yaxshi muomalada bo'lish oson bo'lmaydi. Nega?

ABSTRACT

Qaynana va kelin munosabatlari har bir oilada juda muhim o'rin tutadi. Bu munosabatlar o'zaro hurmat, sabr-toqat, va tushunish orqali rivojlanadi. Qaynana va kelinning o'zaro aloqalari turli ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarga bog'liq bo'lib, bu oiladagi umumiy muhitni shakllantiradi. Ko'pincha bu munosabatlar ijobiy va salbiy tomonlari bilan birga boradi, chunki ularning o'zaro aloqalariga ko'plab tashqi omillar ta'sir qiladi. Maqolada qaynana va kelin o'rtasidagi munosabatlar, bu munosabatlarning shakllanishida rol o'ynovchi omillar, masalan, turmush tarzi, ijtimoiy qadriyatlar, oilaviy an'analar va shaxsiy xarakterlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, qaynana va kelin o'rtasida yuzaga kelgan to'qnashuvlar, ziddiyatlar va ularni hal qilish usullari, o'zaro tushunishning ahamiyati ham tahlil etiladi. Bu maqola oiladagi bu ikki muhim shaxsning o'zaro munosabatlarini yaxshilash va oilaviy farovonlikni saqlash uchun qaysi yondoshuvlar samarali ekanligini ko'rsatib beradi.

Qizlar yangi xonadonga kelin bo'lib tushgach, qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu er bilan yangi munosabatlar qurish, erining uydagilari bilan yaxshi muomalada bo'lish, uy ishlari, uyquga to'yimaslik va boshqalar. Shu o'rinda qaynana bilan til topishish alohida kuch va matonat talab etadi. Qaynana ham, kelin ham ayol sifatida qanchalik yaxshi bo'lmasin bir- biri bilan yaxshi muomalada bo'lish oson bo'lmaydi. Nega?

Buning sababi juda ko'p bo'lib, biz ularni tahlil qilib o'tirmaymiz. Undan ko'ra qaynana-kelin munosabatlarini yaxshi bo'lishi uchun nima qilish kerakligi haqida so'z yuritimiz. Shuni ta'kidlab o'tish muhimki, bu munosabatlarni yaxshilash uchun 90% harakatni kelin qilishi kerak. Agar kelin "Qaynanam yomon", "Qaynanam aybdor", "Erim baribir meni deydi" degan xayollar bilan yursa, oilaviy hayoti baxtli bo'lmaydi. Demak,

1. Unutmang, eringiz bilan yolg'iz qolganingizda sizga qanchalik mehribon, jismonan zor bo'lmasin, sizga qanday gaplar gapirmasin baribir tanlash kerak bo'lganda u Onasini tanlaydi. To'g'ri, siz uning oilasisiz, aslida dili sizni deydi, muhabbati va hayoti ham sizniki, lekin u ONA bo'lgani uchun uni tanlaydi. Agar qandaydir sabablar bilan sizni desa ham, siz bundan

yutuqda qolmaysiz. Onani ranjitib baxtli bo'la olmaysiz. Er uchun siz ham, onasi ham birdek muhim va kerak. Munosabatlaringizni tanlov qilish darajasigacha olib bormang. yutqizasiz.

2. Qaynanangizni tushuning. To'qqiz oy bag'rida ko'targan, keyin mehr va sabr bilan voyaga yetkazgan, shunday ajoyib qilib tarbiyalab qo'ygan o'g'lini bir kuni sizga topshiradi. Nafaqat o'g'lini, sevgisini ham, mehrini ham, xayollarini ham sizga berib qo'yadi. O'ziga deyarli hech narsa qoldirmaydi. Faqatgina uning o'g'lining g'amxo'rliqi va shirin so'zi unga kerak bo'ladi xolos. Bundan qaynanangizni ayirmang, agar o'g'lini sizdan rashq qilayotgan bo'lsa, uni tushuna biling.

3. Eringiz bilan qaynanangiz oldida suykalanmang. Erkalash, shirin so'zlashish va boshqa shu kabi intim munosabatlaringizni barchadan yiroqda, yagona qolganingizda amalga oshiring.

4. Qaynanangiz nima desa u haq ekanligiga boshidan o'rganing. Noto'g'ri ekanligiga 100% amin bo'lsangizgina shirin so'z bilan shuni unga tushuntira oling.

5. Uy ishlarini bekamu ko'st bajaring.

6. Farzandlaringiz tarbiyasiga, sog'lig'iga ahamiyatli bo'ling.

7. Eringiz kiyimlariga, ovqatlanishiga ahamiyatli bo'ling.

8. Qaynanangiz haqidagi gaplarni qizlik uyingizga olib bormang. Juda ham siqilib ketsangiz, dugonalar bilan dardlashing, lekin hech qachon maslahat so'ramang. Baribir noto'g'ri maslahat berishadi.

9. Qaynanangizni yaxshi ko'ra olmasangiz ham hurmat qilishingiz shart.

10. Ayb ish qilib qo'ysangiz, kechirim so'rashni biling.

11. Qaynanangiz bilan muammo paydo bo'lsa, eringizdan hal qilib berishini kutmang. Er xotin munosabatlari qaynana-kelin munosabatlariga aralashtirmang. Birini yaxshilaysiz, ikkinchisiga zarb yetadi.

12. Qaynanangizga gap qaytarmang. Nohaq bo'lsa, bir ozdan so'ng o'z fikringizni tushuntirib bering. Agar yuqoridagi maslahatlarni amalga oshirsangiz ham, qaynanangiz sizga nisbatan adolatsiz bo'lsa, u holda bunga ko'z yumib yashashni o'rganing. Asabiylashish uchun shundoq ham sizda muammolar kam emas, qaynana bilan aloqangiz yaxshi emasligi asabiylashishga arzimaydi. Oila - bu er va farzandlaringiz. Qaynana bilan munosabatlaringiz esa ana shu oilani baxtli qilishi uchun mavjud bo'lgan 100ta omillardan birigina xolos.

Oila byudjetini rejalashtirish shaxsiy mablag'ni boshqarish va moliyaviy farovonlikka erishishning asoslaridan biridir.

Xulosa

Qaynana-kelin munosabatlari oilaviy tizimning ajralmas qismlaridan biri bo'lib, u nafaqat o'zaro aloqalar, balki jamiyatdagi qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy strukturalar bilan chambarchas bo'langan. Ushbu munosabatlarning murakkabligi va xususiyatlari, har ikkala tomonning o'zaro hurmat, sabr-toqat va murosa talab qiluvchi munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Kelin va qaynana o'rtasidagi aloqalar, ko'pincha, oilaning farovonligi va barqarorligi uchun bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu munosabatlar nafaqat individual nuqtai nazardan, balki jamiyat va millat darajasida ham muhim ahamiyatga ega.

O'zaro tushunish va muloqotning yaxshilanishi kelin va qaynana o'rtasida kelib chiqadigan muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Bunday munosabatlar o'zaro bog'lanish, ehtiyoj va hissiy aloqalarning o'zaro hurmatga asoslangan rivojlanishi orqali

mustahkamlanadi. Shuningdek, ijtimoiy va oilaviy qadriyatlar kelin va qaynona o'rtasida o'zaro hurmat va muhabbatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, kelin va qaynona o'rtasidagi aloqalar oilaning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Oilaviy ta'lim, erkin va ochiq muloqot muammolarni hal qilishda yordam beradi, bu esa oilada sog'lom psixologik muhitni ta'minlashga imkon yaratadi. O'zbekistonning zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda, kelin va qaynona o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi, oilaviy qadriyatlarning yangi shakllanishi va yuksalishi uchun jiddiy ijtimoiy o'zgarishlar talab etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova, Z. (2017). O'zbek oilasida ijtimoiy munosabatlar va oilaviy qiymatlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Karimova, D. (2020). Qaynona-kelin munosabatlarining psixologik aspektlari. Toshkent:
3. Mirzaeva, G. (2015). O'zbekistonda qaynona-kelin munosabatlari: Tarixiy va ijtimoiy tahlil. Buxoro:
4. Buxoriy, A. (2010). Oilaviy munosabatlar va ijtimoiy tizim. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
5. Isroilov, M. (2018). Ayollar va oilaviy rollar: Ijtimoiy va psixologik tahlil. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti
6. Yusupov, D. (2019). Qaynona-kelin munosabatlarida etnik va madaniy omillar. Toshkent: Sharq nashriyoti.
7. Saidova, L. (2021). O'zbekiston oilalarida zamonaviy qaynona-kelin munosabatlari: Muammolar va yechimlar. Tashkent: O'zbekistonda oilaviy munosabatlar jurnali.